

**QONUNGA XILOF RAVISHDA CHET ELGA CHIQUISH YOKI O'ZBEKISTON
RESUPBLIKASIGA KIRISH JINOYATINI JINOIY JAVOBGARLIGINI
TAKOMILASHTIRISH**

Jurayeva Nafisa Mirdjaxparova

Yangiyo'l shahar prokurorining katta yordamchisi

Tel: 94-642-12-94

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qonunga hilof ravishda kesib o'tish» tushunchasi tarifi ishlab chiqilganligi, O'zbekiston Respublikasi JK 223-moddasini yangi tahririda «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qonunga hilof ravishda kesib o'tish» deb bayon qilish zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi JKga «G'ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish » deb nomlangan 223¹-moddani kiritish zarurati asoslanganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat chegarasi, JK 223-modda, noqonuniy migratsiya, integratsiyalashuv jarayonlari, makroiqtisodiy vaziyat, BMT

Dunyoda integratsiyalashuv jarayonlari, makroiqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi, geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi va boshqa omillar aholi migratsiyasining tezlashuviga sabab bo'lmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida, ayniqsa Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyatning yomonlashgani tufayli ko'p mamlakatlarga g'ayriqonuniy migratsiya jadallashib bormoqda. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, hozirda 218 mamlakat doimiy migratsiya jarayonlarida ishtirok etmoqda. XXI asrning dastlabki 10 yilligida muhojirlarning eng ko'p o'sishi Osiyo (yiliga 1,7 million), undan keyin Yevropa (yiliga 1,3 million) va Shimoliy Amerika (yiliga 1,1 million) mintaqasiga to'g'ri kelmoqda. Xalqaro migratsiya tashkilotining takidlashicha, 2030 yilga kelib migratsiya oqimlari 300 milliondan ko'payishi g'ayriqonuniy migratsiyaning oshishiga Jahonda migratsiya jarayonlarining kuchayishi va davlat chegaralarini g'ayriqonuniy kesib o'tishning bog'liqligi qonunga hilof ravishda chet elga chiqish yoki davlat hududiga kirish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga solish, uning uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish, mazkur jinoyatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda, jumladan, g'ayriqonuniy migratsiya jarayonlarini jinoyat-huquqiy tartibga solish, qonunga hilof ravishda chet elga chiqish yoki kirish jinoyatlarini turi kvalifikatsiya kilish va jinoiy qilmishga nisbatan adolatli jazo tayinlash, mazkur jinoyatlarning sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash xamda oldini olishning yangi yo'nalish va istiqbollari tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda chegaradan o'tishning belgilangan tartibi chet davlatlar bilan zaro foydali hamkorlik olib borish, chegara, bojxona, sanitar-karantin, veterinar va boshqa nazorat turlarini amalga oshirish, davlatning hududiy yaxlitligi, chegaralarning daxlsizligini mustaxkamlash, chegara kelishmovchiliklarini tinch yo'l bilan hal qilish, shahs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan muhofaza qilish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish, qonun ustuvorligini taminlash va sud-xuquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligi mazkur sohani tadqiq etish zarurati mavjudligidan dalolat bermoqda.

L. L. Kruglikov qayd etib o'tganidek, chegaraning mavjudligi davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi va davlat hududga ega ekanligidan, u mazkur hudud ustidan o'z suverenitetini amalga oshirishidan dalolat beradi, chegaraning daxlsizligi esa, mamlakat hududiy yaxlitligi va tashqi xavfsizligining shartlaridan biri hisoblanadi. Chegara daxlsizligining buzilishi aksariyat hollarda josuslik, terrorizm, qurol-yarog' va giyohvandlik vositalari kontrabandasi singari boshqa xavfli jinoyatlarning sodir etilishi bilan bog'liq bo'ladi. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra,

O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib qoidalari quyidagi huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi: "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonun; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibini takomillashtirishga doir muhim chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 16-avgustdagi PF-5156-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risidagi nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrda 408-son qarori bilan tasdiqlangan "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari va O'zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi"; boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26-dekabrda PQ-4079-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, qonun hujjatlarida belgilangan cheklolardan tashqari, ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda xorijga erkin chiqish va O'zbekiston Respublikasiga kirish huquqiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF -4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakterlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi konun xujjalari tuplami, 2017 y. 70-modda
2. "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonun – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6605257>
3. Allanova A.A. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi axborotnomasi, № 1 (45) 2021.